

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon Qizi

**XURSHID DAVRON IJODIDA
TARIXIY FAKT VA BADIY
TO‘QIMA UYG‘UNLIGI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 894.375
KBK: 83.3(5O‘z)
U 89

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon Qizi.

Xurshid Davron ijodida tarixiy fakt va badiiy to‘qima uyg‘unligi
[Matn]: monografiya / Z.I. Usmanova. – Toshkent: Bookmany print,
2024. – 84 b.

Mas’ul muharrir:
Davlatova Adiba Raxmatovna,
ChDPU professori v.b., filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:
Tadjixon Sabitova,
ChDPU professori v.b., filologiya fanlari nomzodi.

Musa Sabirovich Tadjibayev,
O‘zDJTU professori, filologiya fanlari doktori.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati talabalarning tarixiy shaxslar obrazi poetikasiga oid nazariy qarashlarini boyitishi, xususan, lirik va epik turdagi asarlarga doir tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimidagi bakalavriat, magistratura bosqichlari uchun “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Badiiy tahlil asoslari” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlarini o‘qitishda manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligida ko‘rinadi.

Monografiya talabalar va maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashining 2024-yil 15-noyabrdagi 5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-312-1

© Usmanova Z.I., 2024.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida tarixiy-biografik janr, ulardagi tarixiy shaxs obrazlari poetikasi hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va uni milliy adabiyot sathida tadqiq etish zarurati filologiya sohasida ham jiddiy vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, jahon adabiyotshunosligida yozuvchi va shoirlarning tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi poetik izlanishlarini tadqiq etishning yangi metod va usullari paydo bo'lmoqdaki, bu badiiy asarning mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratmoqda. Adabiyotshunoslik fani o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash orqali tarixiy shaxs obrazlarining badiiy talqinini o'rganish muammolarini chuqurroq tadqiq etish yo'lidan boryapti. Zero, lirik, epik va dramatik turdagi asarlarda tarixiy shaxslar obrazlarining poetikasini tahliliy o'rganish ziyolilarning ma'naviy olami, dunyoqarashini, shuningdek, yozuvchilarning tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni ifodalashda muhim ahamiyatga egadir.

Dunyo adabiyotshunosligida, tarixiy shaxslar obrazi poetikasi muammosiga yangicha yondashish, badiiy-estetik xususiyatlarini yoritish, yozuvchi badiiy mahoratini ochish, tarixiy-biografik asarlarda poetik nutq va uslub masalasini anglash dolzarb ilmiy masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan tarixiy shaxs obrazi, tasvir va ifodaning o'ziga xos talqini bilan bog'liq. Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy shaxs obrazi poetikasiga nisbatan alohida yondashuvlar kuzatilyapti. Bu borada yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqinini chuqur va atroflicha tadqiq etish asosiy vazifa etib belgilandi. Darhaqiqat, tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqinini o'rganish muayyan davr prozasining badiiy poetik ko'lamini belgilashda alohida o'rin tutadi.

Istiqlol yillarida madaniy merosni tadqiq etish, milliy iftixor hamda qadriyatlarni anglash zarurati bugungi davr milliy adabiy merosi mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti rivojida munosib o'rnini asoslash, hozirgi o'zbek nazmi va nasriga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi

islohotlar jarayoni o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga bir qator yangi vazifalarni qo‘ymoqda. “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi”¹. Shu sababli tarixiy shaxslar hayotiga bag‘ishlangan asarlarni tarixiy manbalar bilan qiyosiy o‘rganib, ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash adabiyotshunoslik sohasida chuqur izlanish olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli farmoyishi, O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limi tomonidan “Xurshid Davron ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” mavzusida o‘tkazilgan 2022-yildagi respublika ilmiy konferensiya hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda tarixiy shaxslarning hayoti va madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. R.Tursunova, O. Dadaboyev, M.Hamroyeva, D.Rasulmuhamedova, I.Sulaymonov, M. Abdullayeva, A.Nosirov,

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

B.To‘rayeva, Z.Rahimova, A.Ergashevalarning² dissertatsiya ishlarida, tarixiy ilmiy va badiiy asarlardagi tarixiy shaxslar obrazi³ Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga xos bo‘lgan qirralarni, ijodkor uslubi, poetik mahorati atroflicha, turli aspektda o‘rganilib, tarixiy shaxslar obrazining poetikasiga doir qimmatli fikrlarni o‘zida jamlagan.

Xorij adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, M.Xrapchenko, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, V.Jirmunskiy,⁴ kabi olimlarning dissertatsiya va ilmiy asarlarida adabiyotshunoslikdagi badiiy obraz masalasi, biografik asarlarning o‘ziga xosligi hamda tarixiy shaxs obrazini yaratishda mualliflarning turlicha yondashuvlari tahlil qilinib, nazariy xulosalar bildirilgan.

Tarixiy asarlar hamda ulardagi badiiy obraz⁵ masalasi keng ko‘lamda tadqiq etilgan bo‘lsa-da, xususan, tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini masalasi maxsus o‘rganilgan emas.

² Турсунова Р. Ғарбий Европа операларида Амир Темур образи Санъатшунослик фан.фал. док. дис. – Т.: 2020. 192 б.; Дадабоев О. Ғарб ва шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. филол.фан.фал. док. дис. – Т.: 2019. 150 б.; Ҳамраева М. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (Насрий асарларда Амир Темур образи). филол.фан.ном.дис – Термиз: 2010. 137-б.; Расулмуҳамедова Д. Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. филол.фан.фал. док. дис. – Т.: 2000. 147 б.; Сулоймонов И. "Бобурнома"да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири. филол.фан.фал. док. дис. . – Самарқанд: 2020. – 268 б.; Абдуллаева М. Тарихий насрий асарлар бадийтининг қиёсий таҳлили ("Бобурнома"ва "Шажараи турк" мисолида). филол.фан.фал. док. дис. . – Т.: 2008. – 152 б.; Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. филол. фан. док. дис. – Самарқанд: 2018. – 244 б.; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси. (О.Ёқубов ва П. Қодиров романлари мисолида). филол.фан.фал. док. дис. Т.: 2018. 158 б.; Раҳимов З. Одил Ёқубовнинг "Кўҳна дунё" романи поэтикаси. филол.фан.ном.дис. –Т.: 2000. – 137 б.; Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион тузилишидаги поэтик ўрни (Асқад Мухторнинг "Чинор" ва Одил Ёқубовнинг "Кўҳна дунё" романлари асосида). - филол.фан.ном.дис. –Т.: 1993. – 151 б.;

³ Muhammad Ali. Sarbadorlar. –Т.: G‘afur G‘ulom, 2011. – 560 b.; P.Qodirov. Yulduzli tunlar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2015. 672-b. O.Yoqubov. Ko‘hna dunyo. Т.: Yangi asr avlodi, 2015. 480-b. P.Ravshanov. Amir Temur silsilasi. – Т.: Yangi asr avlodi, 2017. 656-b.

⁴ Белинский В. Танланган асарлар. –Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1955. – 511 б.; Храпченко М. Горизонты художественного образа. – Москва.: Художественная литература, 1986. – 439 с.; Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Жўрақулов У. Таржимаси. –Т.: Академнашр, 2015. – 286 б.; Виноградов В. О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат, 1959. – 656 с.; Жирмунский В. Сравнительное литературоведение. – Ленинград: Наука, 1979. – 495 с.; Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского.– М.: Советский писател, 1963, стр. 338.

⁵ Самандаров И. Ўзбек тарихий романларида тарихийлик. филол.фан.ном.дис. –Т.: 1992. – 145 б.; Ҳажиева Ф. Биографик роман жанри хусусиятлари (И. Стоун, М.Қориев ва